

KONSEPT –TUSHUNCHA – SO‘Z MUNOSABATI

Ozoda Anorqulova

*O‘zbekiston-finlandiya pedagogika instituti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD*

Annotatsiya: Mazkur maqoladan “kosept” tushunchasining turli ilmiy-nazariy adabiyotlardagi talqini, olimlar tomonidan berilgan ta’riflar, shuningdek, uning “tushuncha” va “so‘z” dan farqli hamda mushtarak xususiyatlari o‘rin olgan. Konsept tushuncah va so‘zga nisbatan kengroq bo‘lib, u pragmatik, kognitiv jarayon bilan bevosita bog‘liq hodisadir.

Kalit so‘zlar: Konsept, so‘z, tushuncha, tafakkur, kognitiv jarayon.

“**Konsept**” tushunchasi mavhum hodisa bo‘lganligi sababli uni aynan bir birlikning mavjud bo‘lmagan, moddiy ko‘rinish aks etmagan, balki ongimiz, tafakkurimiz orqali hosil qiladigan ma’nolar jamlanmasi sifatida baholaymiz. Bu borada M.Rahmatova: “Inson faoliyati davomida to‘plangan bilim uning ongida aks etar ekan, bunday mental reprezentatsiya milliy-madaniy faoliyatning aks etishidir”, - degan fikrni bayon etadi.[3: 13.] Biroq “**konsept**” atamasini “**ma’no**”, “**tushuncha**” kabi hodisalar bilan bir qatorga qo‘yish mumkinligi, shu bilan birgalikda ular aynan bir xil emasligi, o‘zaro umumiyligi va farqli tomonlarini ajratib olish kerakligini unutmasligimiz kerak. Bu haqda tilshunos olim Sh.Safarov shunday fikrlarni bildiradi: “Ushbu savollarga hozircha to‘liq javob topilganicha yo‘q va uning topilishi ham gumonli. Gumon tug‘ilishining, albatta, sabablari bor. Dastavval, “**konsept**” tushunchasining o‘ta mavhum hodisa ekanligini, uning zamiridagi “mental struktura” hech qanday moddiy ko‘rinishga ega bo‘lmasdan, balki aqliy idrok jarayonida hosil bo‘ladigan, tasavvurdagi tuzilma ekanligini unutmaslik lozim. Boz ustiga, “**konsept**” atamasi “**tushuncha**”, “**ma’no**”, “**mazmun**” kabi boshqa mental hodisalar bilan yonmaydon turadikim, ularning o‘zaro munosabatini aniqlash, farqli belgilarini ajratish muammosi ham paydo bo‘ladi» [4:185-188.] Bu borada olim fikrlarini davom ettirib, “Mantiqiy faoliyat hosilasi bo‘lgan “**tushuncha**” va kognitiv tilshunoslikda keng miqyosda qo‘llanilayotgan “**konsept**” atamalarini bir xil mazmunda qo‘llash mumkinmi? So‘zsiz, bu ikkala hodisa ham tafakkur birligi sifatida namoyon bo‘ladi. Bularning ikkalasining ham boshlang‘ich nuqtasi voqelikdagi predmet – hodisaning his qilinishi va obrazli tasavvur qilinishi bilan bog‘liq”, - degan fikrlarni aytib o‘tadi. [5: 13.]

Endi tilshunoslik bo‘yicha yaratilgan qomuslarda tushunchaga berilgan izohlarni ko‘rib o‘tamiz: Tushuncha — narsa va hodisalarning muhim xususiyatlari, aloqalari va munosabatlarini aks ettiruvchi tafakkur shakli. Tushuncha bilish mahsulidir, bu bilish

oddiydan murakkabga ko‘tarila borib, eski tushunchalarni mukammallashtiradi, aniqlashtiradi va yangilarini shakllantiradi. Tushunchaning asosiy mantiqiy vazifasi biror narsani boshqa narsadan fikran ajratishdan iborat. Predmetlar turkumlarini ajratish va ularni tushunchada umumlashtirish tabiat qonunlarini bilishning zarur shartidir. Har bir fan muayyan tushunchalar bilan ish ko‘radi, ularda bilimlar jamlanadi. Tushuncha hissiy bilish shakllaridan farq qilib, inson miyasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aks etmaydi. U taqqoslash, analiz, sintez, abstraksiyalash, umumlashtirish kabi mantiqiy usullardan foydalangan holda hosil qilinadi.

Ta’rifdan ma’lum bo‘ladiki, tushuncha bilish jarayoni mahsuli sifatida mantiqiy fikrlashning asosiy birligi hisoblanadi. Shunday ekan, unga tilshunoslik nuqtayi nazaridan qanday yondashish lozim, ular orasida qanday bog‘liqlik mavjud, degan savollar tug‘ilishi tabiiy, albatta. Qomuslarda qayd qilinishicha, tushunchaning shakllanishi so‘z bilan bog‘liq. Ular o‘rtasidagi uzviy aloqadorlik tafakkur va til o‘rtasidagi bog‘lanishning aniq tarzda namoyon bo‘lishidir. Tushunchalar so‘z va so‘z birikmalari yordamida ifoda qilinadi. Har qanday tushuncha abstraksiyadan iboratdir, bu hol tushunchada voqelikdan uzoqlashgandek tuyulsa-da, haqiqatda esa tushuncha yordamida voqelikning muhim tomonlarini ajratib, tadqiq qilish yo‘li bilan chuqurroq bilib olinadi. Tushunchalarning o‘zaro aloqadorligi va bir-biriga o‘tib turishi dialektik mantiqning tushuncha haqidagi qoidasining muhim tomonlaridan biridir.

Haqiqatdan ham bir so‘z turli shaxslar tafakkurida turlicha tushunchalarda namoyon bo‘lishi mumkin. Masalan, “ota” bir kishi uchun “**pir**”, “**xazina**”, “**oilaboshi**” bo‘lsa, boshqa kishi uchun “**armon**”, yana boshqalar uchun esa “**o‘gaylik**” hislarini uyg‘otuvchi shaxs tushunchalarini anglatadi. Ko‘rinadiki, o‘zaro bir sinonimik qatorni tashkil etuvchi so‘zlarning qo‘llanish darajasi bir xil emas. Ularning ayrimlari bugungi nutqimizda faol qo‘llanilsa, ayrimlari allaqachon tarixiy so‘zga aylanib ulgurgan. So‘zlar qo‘llanishiga davriylik nuqtayi nazaridan yondashuv ularning konseptual maydonini shakllantiradi. “So‘zlarning eskirishi, ya’ni bugungi adabiy til nuqtayi nazaridan eskilik bo‘yog‘ini olishi turli sabablar bilan voqe bo‘lishi mumkin. So‘zlar, asosan, o‘zi anglatgan tushunchalarning butunlay yo‘qolib ketishi sababli yoki boshqa so‘zlarning siquvi, “tazyiqi” bilan faol qo‘llanishdan chiqib, eskirib qoladi. Birinchi holatda tushunchaning o‘zi yo‘qolib ketgani uchun uni ifoda etgan so‘z kishilarning faol lug‘atida keraksiz bo‘lib qoladi. Ikkinci holatda esa muayyan tushunchaning ifodasi bo‘lgan so‘zning o‘rnini shu tushuncha ifodasi uchun yana ham qulayroq bo‘lgan boshqa so‘z olishi natijasida oldingi so‘z faol lug‘atdan o‘z-o‘zidan chiqib ketadi” [2: 106.] Shunisi xarakterlik, ota konseptini ifodalovchi “**padar**”, “**padari buzrukvor**”, “**pushtipanoh**”, “**qiblagoh**” kabi so‘zlar bugungi kun uchun tarixiy hisoblansa, tilimizda mazkur so‘z anglatgan ma’noni ifodalovchi “**dada**” so‘zining faollashuvi kuzatiladi. Demak, so‘zlarning og‘zaki yoki yozma nutq ko‘rinishidagi vazifasi o‘ziga xos. U tushunchaga ham, konseptga ham xos bo‘lgan

xususiyatlarini o‘zida jamlaydi va umumiylit xususiyatiga egaligi bilan ajralib turadi. Lug‘atlarda ta’kidlanishicha, So‘z — tilning narsa-hodisa, jarayon va xususiyatlarni nomlash uchun xizmat qiladigan eng muhim struktur-semantik, ma’noviy birligi; o‘z tovush qobig‘iga ega bo‘lgan, borliqdagi narsalar haqidagi tushunchani, ular o‘rtasidagi aloqa yoki ularga munosabatni ifodalay oladigan, turli grammatik ma’no va vazifalarda qo‘llanadigan eng kichik nutq birligi, leksemaning nutqda muayyan shakl va vazifa bilan voqelangan ko‘rinishidir. So‘z gap uchun qurilish materiali bo‘lib xizmat qiladi, lekin undan farqli ravishda, xabar yoki tugal fikr ifodalamaydi. O‘zida leksik va grammatik ma’noni birlashtirgan so‘z muayyan turkumiga mansub bo‘ladi. Tilshunoslikda «so‘z» atamasi leksema nisbatan ham qo‘llanadi va leksik so‘z deb yuritiladi. Mas, «so‘z yasalishi», «yasama so‘z» birikmalarida «so‘z» xuddi shu ma’noda qo‘llanadi. Leksemaning nutqda muayyan shaklda voqelangan holati tilshunoslikda so‘z shakl, leksema shakl yoki morfologik so‘z deb ham yuritiladi. Bu ta’rifda so‘zning leksik-grammatik tabiat yoritilgan. Lekin so‘zning semantik, mantiqiy tomonlari ham borki, ular so‘zning funksional tabiatini qamrab oladi. Lug‘atda bu haqda shunday ma’lumot berilgan: «So‘zning tovush va ma’no tomoni bor. Lekin har qanday tovush yig‘indisi so‘z bo‘lavermaydi. Tovush yoki tovush birikmasi so‘z bo‘lishi uchun ma’noga ega bo‘lishi, ya’ni muayyan til egalari shu tovushlar vositasida biror narsani anglashi yoki bir-biriga anglatishi kerak. So‘z ma’nosida umumiylit va yakkalikning, barqarorlik va o‘zgaruvchanlikning dialektik o‘zaro munosabati aks etadi. Ma’noning barqarorligi o‘zaro tushunishni qulaylashtirsa, uning o‘zgaruvchanligi (so‘zning aniq, bir ma’nosidagi o‘zgarishlar) so‘zdan borliqdagi yangi tushuncha va narsalarni nomlashda foydalanishga imkon beradi, badiiy so‘z san’atining muhim omillaridan hisoblanadi. So‘zning ko‘p ma’noliligi ham aynan ma’noning o‘zgaruvchanligi bilan bog‘liq. So‘zlovchining nomlanayotgan narsaga munosabati so‘z ma’nosining so‘zlovchi his-tuyg‘usini, shaxsiy fikrini ifodalovchi emotsional jihatini tashkil etadi. So‘z tilda muayyan tizimni shakllantiradiki, bu tizim so‘zning grammatik belgilari (so‘z turkumlari) ga va semantik munosabatlari (sinonimlar, omonimlar, antonimlar) ga asoslanadi».

O‘zbek tilshunosligida T.Mardiyev konsept tushunchasiga berilgan ta’rif, xulosa va nazariyalar haqida ham to‘xtalib o‘tadi: “Konseptlar, odatda, inson turmush tarzi bilan bog‘liq ma’lum tushunchalarni maxsus qoliplarga solish, lisoniy va madaniy mavjudligini belgilashga qaratiladi. Ma’lum bir konsept har bir lingvomadaniyatda o‘ziga xos shakllanishga ega sanaladi. Konseptlar, o‘z navbatida, so‘z ma’nolariga nisbatan keng talqin etiladigan, murakkab tipologik qurilmaga ega” [1: 36-44.] Xuddi shu asosda T.Mardiyev “Baxt” konsepti borasida olib borgan izlanishlari natijasida ushbu tushuncha o‘z atrofida *qarindoshchilikning ijobiy munosabatlari, sog‘lom turmush tarzi, jamoaviy munosabatlardagi ijobiylilik (qo‘ni-qo‘shti, jamoa va shu kabilarda o‘z o‘rniga ega bo‘lish), ma’naviy-axloqiy turmush tarzi, jismoniy sog‘lik,*

sevgi, muhabbat, turmush tarzidan to'laligicha qoniqish hosil qilish va rozilik, xudodan rozilik, istak-xohishning amalga oshishi, yetuklik, turmushga chiqish yoki turmush qurish, taqdirdan rizolik, farzandli bo'lish va farzandlarning axloqiy-ma'naviy yetukligi kabi konseptual birliklarni qamrab oladi, degan xulosaga keladi. (Qarang: Mardiyev, o'sha asar, 44-bet).

Bundan tashqari, olim “Do'st/friend”, “baxtsizlik”, “mehr-muhabbat”, “yurak” konseptlari bo'yicha ham izlanishlar olib borib, tadqiqotlari jarayonida o'zbek va ingлиз тили materiallarini o'zaro solishtirgan holatda lingvomadaniy ko'rinishda leksik-semantik, etnik jihatdan tahlil qilib bergen.

Xuddi shu yo'naliishda M.M.Rahmatovaning ham filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi “Ingliz, o'zbek va tojik milliy madaniyatida “Go'zallik” konseptining lisoniy xususiyatlari” deb nomlanib, olima bu tadqiqot ishida ingliz, o'zbek va tojik tillari maqollarida aks etgan “Go'zallik konsepti doirasida go'zallik prototip ma'nolarining botiniy go'zallik, zohiriyl go'zallik, muhit, hodisa, predmet go'zalliklari kabi aksiologik (qadriyatlar bilan bog'liq) xususiyatlari asoslab bergen. Qolaversa, ishda chog'ishtirilayotgan tillarda “Go'zallik” konseptiga oid leksema va frazemalarning paydo bo'lishi, o'zgarishi jarayonlarida milliy qadriyatlar ta'sirining derivatsion (so'z yasalish) jihatasi asoslab berilgan. Bundan tashqari, ushbu konseptning tilda voqelanishida har uchchala xalqning etnik xususiyatiga xos tabiat hodisalari, zoonimlar, o'simliklar dunyosi, antroponimlar (kishi nomlari), taom nomlari, diniy antroponimlar, istorizmlar, uslubiy xos so'zlar va ijtimoiy mavzularga oid lisoniy birliklarning umumiyl hamda milliy-madaniy xususiyatlarining konseptual izomorfik jihatlari isbotlangan.[3: 8.]

Prof. O'.Q.Yusupov konsept haqida fikr yuritar ekan, uni shunday ta'riflaydi: konseptni “tashqi yoki ichki dunyodagi biror bir narsa yoki hodisa haqidagi ongimizdagи bilimlar majmui, u haqidagi obrazlar va unga bo'lgan ijobiy, salbiy, neytral munosabatlar, ya'ni baholashlardir. Konsept bilan tushunchani aysbergga o'xshatish mumkin. Agar konsept aysberg bo'lsa, uning suvdan chiqib turgan qismi tushunchadir” [6: 49.] Bu fikrga ham qo'shilish mumkin, chunki aysbergning suvdan chiqib turgan qismi uning suvostidagi qismiga nisbatan anchayin kichik. Demak, biror so'zni konseptual tahlilga tortishda, dastlab, uning lisonda paydo bo'lgan voqelanishi tushuncha deb qaraladigan bo'lsa, chuqrurroq kognitiv talqin qilinganda uning yanada ko'proq mazmuni namoyon bo'laveradi. Konsept so'zni shunchaki anglatgan ma'nosiga qarab emas, balki uning borliqda ifodalananadigan barcha tushunchalarini, inson idroki bilan bog'liq jihatlarini, lingvomadaniy ko'rinishlarini kognitiv talqinda tahlil etadi.

Xullas, keyingi yillarda tilshunoslik sohasida paydo bo'layotgan yangi yo'naliishlarning mavjudligi bu sohadagi modernizatsiyalanishning keskin sur'atlarda ekanligidan dalolat beradi. Ana shunday yo'naliishlardan biri bo'lgan kognitiv

tilshunoslikning asosiy tushunchalaridan biri bo‘lgan konsept atamasi, dastlab, rus tilshunosligida, so‘ngra jahonning boshqa tilshunoslik sohalariga kirib bordi. Aynan o‘zbek tilshunosligida XX asrning 90- yillariga kelib shakllangan bu tushuncha bugungi kunda ham o‘z tadqiqotchilariga ega. Jahon tilshunosligiga nazar tashlasak, tilning konseptul tabiatiga bo‘lgan talab va bu ko‘lamda qilingan ishlar, nazariyalar 80-yillarga kelib birmuncha tanqidlarga uchraydi. Yillar o‘tishi bilan esa tadqiqot maydoni kengayib konsept va konceptual sohaga talab va qiziqish qayta tiklandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мардиев Т. “Бахт” концептининг лингвомаданий ва семантик талқини (инглиз ва ўзбек тиллари қиёсида) // “Хорижий филология: тил, адабиёт, таълим” (Илмий ахборотнома журнали). – Самарқанд: СамДЧТИ нашриёти, 2016, №10. – Б.36-44.
2. Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009.- 106-бет.
3. Раҳматова М.М. Инглиз, ўзбек ва тожик миллий маданиятида “гўзаллик” концептининг лисоний хусусиятлари. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Бухоро: 2019. – 13-бет.
4. Сафаров Ш. «Концепт» ҳодисаси ҳақида // Систем-структур тилшунослик муаммолари (Н.Қ.Турниёзов таваллудининг 70 йиллигига бағишиланган Республика илмий-назарий конференцияси материаллари). – Самарқанд, 2010. – 185-188-бетлар.
5. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 13-бет.
6. Юсупов Ў.Қ. Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультурema атамалари хусусида // Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида. Илмий амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2011. – Б. 49.
7. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-s/soz-uz-2/>
8. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-t/tushuncha-uz/>